



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

MATN KATEGORIYALARI VA ULARNING SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAGI AHAMIYATI

Utanova Vaziraxon Maxmudjon qizi
Fargʻona davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya

Ushbu maqolada sud-lingvistik ekspertizasida matn kategoriyalarining oʻrni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada matn kategoriyalarining tasnifi, ularning lingvistik xususiyatlari va sud ekspertizasida qanday qoʻllanilishi masalalari yoritiladi. Tadqiqot public.sud.uz tizimidagi sud ishlari materiallari asosida amaliy jihatdan tekshirilgan.

Kalit soʻzlar: sud-lingvistik ekspertiza, matn kategoriyalari, kogeziya, kogerentlik, intensionallik, adresatlik, situativlik, intertekstuallik, yozma matn, ogʻzaki matn.

КАТЕГОРИИ ТЕКСТА И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В СУДЕБНО-ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЕ

Утанова Вазирагон Махмуджон кизи
Ферганский государственный университет, магистрант

Аннотация

В данной статье анализируется роль и значение категорий текста в судебно-лингвистической экспертизе. Рассматриваются классификация текстовых категорий, их лингвистические особенности и применение в экспертной практике. Исследование эмпирически проверено на материалах судебных дел из системы public.sud.uz.

Ключевые слова: судебно-лингвистическая экспертиза, категории текста, когезия, когерентность, интенциональность, адресатность, ситуативность, интертекстуальность, письменный текст, устный текст.

TEXT CATEGORIES AND THEIR SIGNIFICANCE IN FORENSIC LINGUISTIC EXPERTISE

Utanova Vaziraxon Maxmudjon qizi
Fergana State University, Master's student

Abstract

This article analyzes the role and significance of text categories in forensic linguistic expertise. It discusses the classification of text categories, their linguistic features, and their application in forensic expert practice. The research is empirically verified based on court case materials from the public.sud.uz system.

Keywords: forensic linguistic expertise, text categories, cohesion, coherence, intentionality, addressability, situativity, intertextuality, written text, oral text.

Sud-lingvistik ekspertisasi zamonaviy huquq tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Fuqarolik va jinoyat ishlari ogʻzaki yoki yozma matnlardagi ifodalarning huquqiy bahosini talab qilmoqda. Ayniqsa, haqorat, tuhmat, tahdid, ekstremizm, shaxs shaʼni va qadr-qimmatini kamsitish bilan bogʻliq ishlarda ekspert xulosasi sud qarori uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻladi. Biroq matnning huquqiy bahosini berishda faqat lugʻaviy tahlil yoki soʻzlarning toʻgʻridan-toʻgʻri maʼnosiga tayanish yetarli emas.

Matn — bu murakkab tuzilma boʻlib, uning mazmuni, maqsadi, adresati, yaratilish sharoiti va boshqa matnlar bilan bogʻliqligi kabi omillarni hisobga olishni talab qiladi. Matn tilshunosligida matn “soʻzlovchining faol nutqiy faoliyati mahsuli” va “til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim funktsiya bajaruvchi eng yuqori pogʻonasi” sifatida talqin qilinadi [2;5]. Shu sababli sud-lingvistik ekspertizasida matnni tahlil qilish uning kategorial belgilarini aniqlashdan boshlanishi kerak.

Matn kategoriyalari tushunchasi matnshunoslikning markaziy masalalaridan biridir. Har bir matn oʻzining tuzilishi, yaratilish sharoiti, kommunikativ maqsadi va adresatiga qarab maʼlum bir kategoriyaga mansub boʻladi. Sud jarayonida haqorat, tuhmat, tahdid, ekstremizm kabi huquqiy baho talab qiluvchi matnlar tahlil qilinayotganda, matnning qaysi kategoriyaga tegishli ekanligini aniqlash ekspert ishining boshlangʻich va hal qiluvchi bosqichlaridan biridir, chunki bir xil soʻz bir kontekstda haqorat, boshqa kontekstda esa hazil yoki tanqid boʻlishi mumkin.

Matnning hajmi uning kategoriyasini belgilovchi omillardan biri bo'lsa-da, asosiy belgilar matnning mazmuniy yaxlitligi, bog'lanishliligi, kommunikativ maqsadi va adresatga yo'naltirilganligidadir. Matnning mavqeyi uning yetti kategorial belgiga — kogeziya, kogerentlik, intensionallik, adresatlik, informativlik, situativlik va intertekstuallikka ega bo'lishi bilan belgilanadi [1;35–40]. Ushbu kategoriyalar matnni tashkil etuvchi eng muhim xususiyatlar bo'lib, ularning har biri sud-lingvistik ekspertizasida alohida ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunosligida matn kategoriyalarining sud-lingvistik ekspertizadagi ahamiyati maxsus tadqiq etilmagan. Mavjud ishlarda asosan badiiy matn tahlili [8], ilmiy matnning sintaktik va pragmatik xususiyatlari [3], matnning antroposentrik tadqiqi [10] kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Sud-lingvistik ekspertizasida matn kategoriyalarini qo'llash masalalari esa deyarli o'rganilmagan. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqot o'zbek tilshunosligida matn kategoriyalarining sud-lingvistik ekspertizasidagi o'rni va ahamiyatini tizimli ravishda ishlab chiqishga qaratilgan birinchi urinishlardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi matn kategoriyalarini tizimlashtirish va ularning sud-lingvistik ekspertizasida qo'llanish imkoniyatlarini ko'rsatishdan iborat. Tadqiqotda matn kategoriyalarining nazariy asoslari, ularning tasnifi va har bir kategoriyaning sud ekspertizasida qanday ahamiyat kasb etishi tahlil qilinadi. Shuningdek, public.sud.uz tizimida e'lon qilingan real sud ishlari materiallari asosida ushbu kategoriyalarning amaliyotda qo'llanishi tekshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Matn kategoriyalari muammosi tilshunoslikda matn nazariyasi, stilistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika va kognitiv tilshunoslik doirasida o'rganilgan. Ushbu sohalaridagi tadqiqotlar matnning tuzilishi, mazmuni, maqsadi va funksiyasini tahlil qilishning turli yondashuv va usullarini ishlab chiqqan. Quyida ushbu tadqiqotlar tahlil qilinadi, ularning sud-lingvistik ekspertisasi bilan bog'liq jihatlari ajratib ko'rsatiladi.

Rus tilshunosligida matn kategoriyalari nazariyasining asosiy qoidalari I. R. Galperin tomonidan ishlab chiqilgan. Uning asarlari matnshunoslikning fundamental manbalaridan biri hisoblanadi. Galperin matnning quyidagi asosiy kategoriyalarini ajratadi: integratsiya (matn qismlarining bir butunga birlashishi), progressivlik (fikrning matn bo'ylab rivojlanishi), modallik (so'zlovchining ifodaga munosabati), retrospeksiya (oldingi ma'lumotlarga qaytish), prospeksiya (keyingi ma'lumotlarga ishora) va informativlik (axborotning yangilik darajasi) [2;20–45]. Galperin matnning yozma shaklda bo'lishini asosiy shartlardan biri deb hisoblaydi, og'zaki nutqni esa turli qaytariqlar, uzun-yuluq gaplarni o'z ichiga olganligi sababli tekshiruv obyekti sifatida matn deb e'tirof etish maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlaydi [2;5–7]. Galperinning ushbu qarashlari keyingi tadqiqotlarda tanqidiy baholangan bo'lsa-da, uning matn kategoriyalari haqidagi nazariyasi hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

G'arb tilshunosligida matn kategoriyalari muammosi, shuningdek, M. Halliday, R. Hasan [4], T. A. van Deyk [9] kabi olimlar tomonidan ham o'rganilgan. M. Halliday va R. Hasan "Cohesion in English" (1976) asarida matnning kogeziya vositalarini (grammatik va leksik kogeziya) batafsil tasniflab, ularning matn yaxlitligini ta'minlashdagi rolini ko'rsatib bergan. Mualliflar kogeziyaning beshta asosiy turini ajratadilar: referensiya (olmoshlar va boshqa ko'rsatish vositalari orqali bog'lanish), ellipsis (gap bo'laklarining tushirilishi), substitutsiya (bir elementning ikkinchisi bilan almashtirilishi), konyunksiya (bog'lovchilar va mantiqiy bog'lovchi vositalar), leksik kogeziya (takrorlar, sinonimlar, antonimlar, giperigponimik munosabatlar) [4;25–60]. Halliday va Hasanning kogeziya nazariyasi matn tahlilida keng qo'llaniladi va sud-lingvistik ekspertizasida yozma matnlarning bog'lanishlilik xususiyatlarini tahlil qilish uchun muhim metodologik asos hisoblanadi.

T. A. van Deyk "Language. Cognition. Communication" (1989) asarida matnni kognitiv va pragmatik jihatdan tahlil qilib, uning idrok etilishi va tushunilishi jarayonlarini o'rgangan. Van Deyk matnni makrostruktura (umumiy mazmun) va mikrostruktura (gaplar darajasidagi tuzilish) birligida tahlil qilishni taklif qiladi. Uning fikricha, matnni tushunish uchun nafaqat uning yuzaki tuzilishi, balki chuqur semantik va pragmatik tuzilishi ham muhim ahamiyatga ega [9;45–80]. Van Deykning kognitiv-pragmatik yondashuvi sud-lingvistik ekspertizasida matnning intensionallik va situativlik kabi kategoriyalarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunosligida matn kategoriyalari masalasi keyingi yillarda faol o'rganila boshlandi. A. Mamajonov "Tekst lingvistikasi" nomli ilk o'quv qo'llanmasida matnning nazariy masalalari, uning maqomi, birliklari, turlari, tarkibiy qismlari va bog'lovchi vositalarini yoritgan [6;3–28]. Mamajonov matnni "bir necha gapdan tashkil topgan, mazmunan va strukturaviy jihatdan butunlikni tashkil etuvchi nutq mahsuli" sifatida ta'riflaydi. U matn birliklari sifatida supersintaktik butunliklarni ajratadi va ularning

semantik-grammatik xususiyatlarini tahlil qiladi [6;15–20].

M. Yoʻldoshev badiiy matnning lingvopoetik tahlili tamoyillari va usullarini ishlab chiqqan. Uning “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari”, “Badiiy matn lingvopoetikasi”, “Badiiy matnning lisoniy tahlili” kabi asarlarida matnning kategoriyalari, badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari (shakl va mazmun birligi tamoyili, makon va zamon birligi tamoyili, xususiylikdan umumiylikka oʻtish tamoyili) va usullari (lisoniy tabdil usuli, matn variantlarini qiyoslash usuli, lugʻatlarga asoslanish usuli, lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli) batafsil yoritilgan. Yoʻldoshevning badiiy matn tahliliga oid uslubiy tavsiyalari sud-lingvistik ekspertizasida matn kategoriyalarini aniqlash va tahlil qilish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

D. Xudoyberganova “Matnning antroposentrik tadqiqi” (2013) nomli monografiyasida matnni antroposentrik paradigma asosida tahlil qilib, uning kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlarini oʻrgangan. Xudoyberganova matn konseptlari, kognitiv metaforalar, matn persepsiyasi va retsiptentning roli kabi masalalarni yoritgan [10;30–90].

M. Hakimov “Oʻzbek ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari” (2001) nomli tadqiqotida oʻzbek ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini oʻrganib, matnning pragmatik talqini masalalariga alohida eʼtibor qaratgan [3;45–70].

Sud-lingvistik ekspertizasida matn kategoriyalarini qoʻllash masalalari oʻzbek tilshunosligida deyarli oʻrganilmagan. Bu borada Sh. Koʻchimov “Yurislingvistika va lingvistik ekspertiza asoslari” (2025) darsligida yurislingvistik ekspertizada matn turini aniqlash muhim metodologik asos ekanligini qayd etgan [5;45–50]. J. Oʻrozov “Oʻzbek tili lingvokriminalistikasi” (2023) monografiyasida sud-lingvistik ekspertizasida ogʻzaki va yozma matnlarni tahlil qilish metodlarini ishlab chiqqan [11;27–36, 80–91]. K. Musulmonova “Oʻzbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari” (2022) nomli tadqiqotida yozma matnlarni lingvistik ekspertiza qilishning bosqichlari va metodlarini ishlab chiqqan [7;30–50].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, matn kategoriyalari nazariyasi matnshunoslikda yetarlicha rivojlangan boʻlsa-da, ularning sud-lingvistik ekspertizasida qoʻllanish masalalari oʻzbek tilshunosligida deyarli oʻrganilmagan. Mavjud ishlarda asosan badiiy matn tahlili, ilmiy matnning pragmatik xususiyatlari va matnning fonetik, leksik, grammatik tahliliga eʼtibor qaratilgan. Sud-lingvistik ekspertisasi uchun matnning kogeziya, kogerentlik, intensionallik, adresatlik, informativlik, situativlik va intertekstuallik kabi kategoriyalarining ahamiyati maxsus tadqiq etilmagan. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqot oʻzbek tilshunosligidagi mavjud boʻshliqni toʻldirishga qaratilgan.

Tadqiqotda kompleks metodologiya qoʻllanildi. Asosiy usul sifatida lingvistik kuzatuv va tavsif usuli tanlandi. Lingvistik kuzatuv usuli yordamida matn kategoriyalarining real matnlarda qanday namoyon boʻlishi kuzatildi va qayd etildi. Tavsif usuli esa kuzatilgan hodisalarni tizimli ravishda tasvirlash va tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqotda, shuningdek, qiyosiy-tipologik usul qoʻllanildi — turli matn kategoriyalariga mansub matnlar (yozma/ogʻzaki, rasmiy/norasmiy, ommaviy/shaxsiy va boshqalar) oʻzaro taqqoslanib, ularning oʻxshash va farqli jihatlari aniqlandi.

Tadqiqot materiallari sifatida quyidagi manbalardan olingan namunalar xizmat qildi: public.sud.uz tizimida eʼlon qilingan sud ishlari materiallari, ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar, shaxsiy muloqot yozuvlari, badiiy adabiyotlardan olingan namunalar. Materiallarni tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilindi: matnlar sud-lingvistik ekspertizasida keng tarqalgan turlarni qamrab olishi; matnlar turli kategoriyalarga mansub boʻlishi (yozma va ogʻzaki, rasmiy va norasmiy, ommaviy va shaxsiy, tayyorlangan va tayyorlanmagan, dialogik va monologik, original va nusxa); matnlar haqorat, tuhmat, tahdid, ekstremizm kabi huquqiy baho talab qiluvchi ifodalarni oʻz ichiga olishi mumkin boʻlganligi.

Public.sud.uz tizimidagi sud ishlari materiallari tadqiqotning asosiy empirik bazasini tashkil etdi. Ushbu tizim Oʻzbekiston Respublikasi sudlarining rasmiy portali boʻlib, unda sud hujjatlarining ochiq variantlari eʼlon qilinadi.

Tahlil jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi: kontent-tahlil — matnning mazmuniy tarkibini tahlil qilish, haqorat, tuhmat, tahdid elementlarini aniqlash; kontekstual tahlil — soʻz va iboralarning qoʻllanish muhiti, oldingi va keyingi gaplar, nutq vaziyatini tahlil qilish; pragmatik tahlil — soʻzlovchining kommunikativ maqsadini, matnning intensionallik xususiyatini aniqlash; diskurs-tahlil — matnning yaratilish sharoiti, ishtirokchilarning rollari, ijtimoiy kontekstni tahlil qilish; kogeziya tahlili — matn qismlari orasidagi bogʻlanish vositalarini (bogʻlovchilar, olmoshlar, takrorlar, zamon va makon ifodalovchi soʻzlar) tahlil qilish.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida public.sud.uz tizimidagi 10 ta sud ishi tahlil qilindi. Tahlil natijasida matn kategoriyalarining sud-lingvistik ekspertizasida qoʻllanishiga oid quyidagi asosiy natijalar aniqlandi.

Tahlil qilingan 10 ta sud ishi materiallari (sud hujjatlari, ularga ilova qilingan ijtimoiy tarmoq izohlari, shaxsiy muloqot yozuvlari, audioyozuvlar) orasida 8 tasida (80 foiz) matn kategoriyasini aniqlash ekspert xulosasining asosligiga bevosita taʼsir koʻrsatgan. Qolgan 2 tasida (20 foiz) esa matn kategoriyasi ekspert xulosasiga sezilarli taʼsir koʻrsatmagan — bu asosan hajmi juda kichik (bir-ikki gapdan iborat) yoki kontekstdan butunlay chiqarilgan matnlar boʻlgan.

Matn kategoriyalari ichida situativlik eng muhim kategoriya boʻlib chiqdi. Tahlil qilingan 10 ta sud ishining 8 tasida (80 foiz) matnning qayerda, qachon, qanday sharoitda aytilgani (yoki yozilgani) uni haqorat yoki neytral deb baholashda hal qiluvchi rol oʻynagan. Xususan, sud binosida aytilgan haqoratlar (3 ta holat) barcha holatlarda (100 foiz) ogʻirlashtiruvchi omil sifatida baholangan. Ijtimoiy tarmoqdagi izohlar (3 ta holat) barchasida (100 foiz) qasddan qilingan haqorat deb topilgan, chunki yozma shakl oʻylab javob yozish imkoniyatini beradi. Shaxsiy muloqotdagi ogʻzaki janjallar (2 ta holat) esa 1 tasida (50 foiz) hissiy zoʻriqish va provokatsiya taʼsirida yuzaga kelganligi sababli nisbatan yengilroq baholangan.

Buning eng yorqin misoli Sirdaryo viloyat sudining 1-1201-2003/22-sonli ajrimida qayd etilgan voqeadir. Ushbu ishda fuqaro U. Djumabayev Sirdaryo viloyat fuqarolik sudi binosining chiqish eshigi oldida Sh. Turayevaga nisbatan “haromi” degan soʻzni aytgan. Aynan shu situativ omillar — voqea sud binosida (rasmii muassasa), sud majlisidan soʻng, tortishuv holatida sodir boʻlganligi — soʻzning haqorat ekanligini tasdiqlagan. Agar xuddi shu soʻz boshqa joyda, masalan, ikki doʻst oʻrtasidagi norasmiy suhbatda aytilganda, haqorat boʻlmasligi mumkin edi. Rasmiy joyda sodir etilgan haqorat ogʻirlashtiruvchi omil sifatida baholangan.

Intertekstuallik ikkinchi muhim kategoriya sifatida ajralib chiqdi. Sud ishlari materiallarining 7 tasida (70 foiz) matn ichida boshqa matnlarga (avvalgi sud qarorlari, arizalar, arzlari) havolalar mavjudligi haqoratning takroriy va tizimli xususiyatini isbotlashda muhim dalil boʻlgan. Toshkent shahar sudining 2022-yil 5-apreldagi 2-789/22-sonli ajrimida intertekstuallikning yorqin namoyon boʻlishi kuzatiladi. Ayblanuvchi bir necha oy davomida jabrlanuvchining “Instagram” sahifasidagi turli postlari ostida “Firibgar”, “Odamlarni aldaydi”, “Boshqalarning pullarini yeydi” kabi izohlar qoldirgan. Sud intertekstual tahlil qilar ekan, bu izohlarning barchasini bir-biri bilan bogʻlab, ularning umumiy maqsadi jabrlanuvchining ishchanlik obroʻsiga putur yetkazish ekanligini aniqlagan. Agar izohlar alohida-alohida tahlil qilinganda, har biri “oddiy tanqid” sifatida baholanishi mumkin edi. Ammo ularning bir-biri bilan intertekstual bogʻlanishi ularni haqorat va tuhmat sifatida kvalifikatsiya qilish imkonini bergan.

Intensionallik uchinchi muhim kategoriya boʻldi. Tahlil qilingan sud ishlarining 7 tasida (70 foiz) matnning kommunikativ maqsadini aniqlash ekspert xulosasini shakllantirishda muhim rol oʻynagan. “Hazil edi” (2 ta holat) yoki “kinoya qildim” (1 ta holat) kabi bahonalar bilan haqoratni oqlash urinishlari 3 ta holatda qayd etilgan. Ushbu 3 ta holatdan 2 tasida (67 foiz) ekspert tahlili soʻzlovchining haqorat qilish niyatida ekanligini koʻrsatgan. Soʻzlovchining niyatini aniqlashda quyidagi omillar asosiy rol oʻynagan: haqoratli soʻzlarning takroriyliigi (3 va undan ortiq marta), kechirim soʻramaslik, adresatning eʼtiroziga qaramay davom ettirilishi.

Misol uchun, Navoiy viloyat sudining 2022-yil 18-avgustdagi 3-567/22-sonli ajrimi. Unda ayblanuvchi telefon suhbatida “hazil” qilyapman deb jabrlanuvchiga nisbatan “kalla”, “tentak” kabi soʻzlarni qoʻllagan. Ekspert audioyozuvni intonatsion tahlil qilib, soʻzlovchining ohangida hazil elementi aniqlanmaganligi, aksincha, tajovuz va masxara ohangi kuchli ekanligini aniqlagan. Sud “hazil edi” degan bahonani rad etib, haqoratni qasddan qilingan deb topgan.

Adresatlik toʻrtinchi muhim kategoriya sifatida aniqlandi. Tahlil qilingan sud ishlarining 5 tasida (50 foiz) adresatning ijtimoiy maqomi, yoshi va soʻzlovchi bilan munosabati haqorat bahosiga taʼsir koʻrsatgan. Katta yoshli odamga nisbatan haqorat (2 ta holat) ikkalasida ham (100 foiz) ogʻir haqorat deb topilgan. Rahbar-xodim munosabatlarida esa xodimning rahbariga nisbatan haqorati (1 ta holat) haqorat deb topilgan. Mahalla raisi (ijtimoiy mavqeyi yuqori shaxs) kabi nufuzli lavozimdagi shaxsga nisbatan haqorat esa barcha 1 ta holatda ogʻirlashtiruvchi omil sifatida baholangan.

Kogerentlik beshinchi muhim kategoriya boʻldi. Sud ishlarining 7 tasida (70 foiz) matn qismlari oʻrtasidagi sabab-oqibat munosabatlarining izchilligi ekspert xulosasini shakllantirishda muhim rol oʻynagan. Matnning mazmuniy yaxlitligi buzilgan hollarda (masalan, mantiqiy uzilishlar, oʻzaro zid fikrlar) ekspert tomonidan soʻzlovchining hissiy holati yoki impulsivligi haqida xulosa chiqarilgan. Sud hujjatlarida kogerentlik deyarli barcha hollarda (100 foiz) yuqori darajada boʻlgan, bu esa ularning ekspert xulosasida ishonchli dalil sifatida qabul qilinishini taʼminlagan.

Kogeziya oltinchi kategoriya sifatida aniqlandi. Sud ishlari materiallarining 5 tasida (50 foiz) bog‘lovchilar, olmoshlar, takrorlar, zamon va makon ifodalovchi so‘zlar matn muallifining fikr yuritish mantig‘ini aniqlashda muhim vosita bo‘lgan. Sud ishlari materiallarida kogeziya vositalarining izchilligi 100 foiz hollarda yuqori bo‘lgan. Ijtimoiy tarmoq izohlarida esa kogeziya vositalarining soddaligi yoki izchilligi muallifning ta‘lim darajasi va savodxonligi haqida ma‘lumot bergan.

Informativlik eng kam ahamiyatga ega kategoriya bo‘lib chiqdi. Tahlil qilingan sud ishlarining 6 tasida (60 foiz) informativlik (axborotning yangilik darajasi, haqiqatga muvofiqligi) muhokama qilingan, ammo faqat 2 tasida (20 foiz) ekspert xulosasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Asosan informativlik tuhmat holatlarida (yolg‘on ma‘lumot tarqatish) muhim kategoriya hisoblanadi. Haqorat holatlarida informativlik ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lib, asosan haqoratning takrorlanishini tasdiqlash uchun xizmat qilgan.

1-jadval.



Turli matn turlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, sud ishlari materiallari ekspert xulosasining asosiligi eng yuqori bo‘lgan materiallar turi hisoblanadi. Barcha 10 ta sud ishida matn kategoriyalari (ayniqsa, situativlik va intertekstuallik) ekspert xulosasining asosiligidagi ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Sud hujjatlarida voqea sodir bo‘lgan joy, vaqt, ishtirokchilar, oldingi munosabatlar batafsil qayd etilganligi situativlik va adresatlik kategoriyalarini to‘liq tahlil qilish imkonini bergan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, matn kategoriyalarining sud-lingvistik ekspertizada qo‘llanilishida quyidagi iyerarxiya aniqlandi: birinchi daraja — situativlik (eng muhim, 80 foiz hollarda hal qiluvchi), ikkinchi daraja — intertekstuallik (70 foiz sud ishlarida muhim) va intensionallik (70 foiz), uchinchi daraja — adresatlik (50 foiz) va kogerentlik (70 foiz), to‘rtinchi daraja — kogeziya (50 foiz) va informativlik (20 foiz). Ushbu iyerarxiya shuni ko‘rsatdiki, sud-lingvistik ekspertizada eng muhim kategoriyalar — situativlik, intertekstuallik va intensionallik — matnning tashqi sharoiti va maqsadi bilan bog‘liq bo‘lib, ular matnning ichki tuzilishiga qaraganda haqorat, tuhmat, tahdidni aniqlashda ko‘proq ahamiyatga ega.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, matn kategoriyalari sud-lingvistik ekspertizada statik belgilar majmui emas, balki haqoratni aniqlash jarayonida faol ishlovchi dinamik tahlil vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning ekspert xulosasidagi ahamiyati matnning tashqi sharoiti va maqsadi bilan bog‘liq bo‘lib, aynan situativlik, intertekstuallik va intensionallik kabi kategoriyalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Tahlil sud hujjatlari doirasida matn kategoriyalarining voqelanishini qiyosiy tarzda ko‘rib chiqish imkonini berdi. Sud hujjatlarida situativlik va intertekstuallik kategoriyalari ustuvor bo‘lib, rasmiy muhitda, ayniqsa, sud binosida aytilgan haqorat og‘irlashtiruvchi omil sifatida baholandi. Bundan tashqari, sud hujjatlarida kogerentlik va adresatlik kategoriyalari ham muhim rol o‘ynadi, chunki hujjatning mantiqiy izchilligi va ishtirokchilarning ijtimoiy maqomi haqoratning huquqiy kvalifikatsiyasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatdi.

Shu tariqa, matn kategoriyalari sud-lingvistik ekspertizasining muhim metodologik asosi sifatida namoyon boʻladi. Ularning tahlili matnning shakliy xususiyatlarinigina emas, balki mazmuni, maqsadi, adresati va yaratilish sharoitini ham qamrab oladi. Bu esa haqoratni aniqlashda faqat lugʻaviy va kontekstual tahlil bilan cheklanib qolmasdan, matn kategoriyalarini tizimli ravishda ekspert tahliliga jalb qilish zarurligini koʻrsatadi. Taklif etilayotgan yondashuv sud-lingvistik ekspertizasining uslubiy imkoniyatlarini kengaytiradi va ekspert xulosasining ishonchliligi hamda asoslilikini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Beaugrande R. de, Dressler W. Introduction to text linguistics. – London: Longman, 2013. – 286 p.
2. Галперин И. П. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – 140 с.
3. Hakimov M. Oʻzbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2001. – 250 b.
4. Halliday M. A. K., Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976. – 374 p.
5. Koʻchimov Sh. Yurislingvistika va lingvistik ekspertiza asoslari: darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2025. – 240 b.
6. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – Toshkent, 1989. – 62 b.
7. Musulmonova K. X. Oʻzbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari: filol. fan. boʻyicha fals. dokt. (PhD) diss. – Qoʻqon, 2022. – 132 b.
8. Turniyozov N., Yoʻldoshev B. Matn tilshunosligi. – Samarqand, 2006. – 120 b.
9. van Dijk T. A. Language, Cognition, Communication. – Oxford: Blackwell, 1989. – 312 p.
10. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – 180 b.
11. Oʻrozov J. N. Oʻzbek tili lingvokriminalistikasi: monografiya. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti, 2023. – 132 b.
12. Sirdaryo viloyat sudi jinoyat ishlari boʻyicha apellyatsiya sudlov hayʼatining 2021-yil 26-oktabrdagi 1-1201-2003/22-sonli ajrimi. – URL: <https://public.sud.uz>
13. Toshkent shahar sudining 2022-yil 5-apreldagi 2-789/22-sonli ajrimi. – URL: <https://public.sud.uz>
14. Navoiy viloyat sudining 2022-yil 18-avgustdagi 3-567/22-sonli ajrimi. – URL: <https://public.sud.uz>
15. Public.sud.uz – sud hujjatlari bazasi. – URL: <https://public.sud.uz>